

**MILLIY TEATRLAR XALQ PEDAGOGIKASINING TARBIYA
VOSITASI SIFATIDA**

Umbatov To'lagan Abdusattorovich

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada teatr san'atining ahamiyati, uning ma'naviy o'rni, yoshlar orasida teatr ro'lini kuchaytirishning muhimligi, shuningdek, maktab davridan boshlab yoshlarning teatr orqali estetik tarbiyalashning afzallik tomonlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: teatr, estetik tarbiya, qo'g'irchoq teatri, ta'lim, qadriyat, san'at, teatrlashtirish, teatr pedagogi

ABSTRACT: This article provides information about the importance of theater art, its spiritual place, the importance of strengthening the role of theater among young people, as well as the advantages of aesthetic education of young people through theater from school age.

Key words: theater, aesthetic education, puppet theater, education, value, art, theatricalization, theater pedagogy

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлена информация о значении театрального искусства, его духовном месте, важности усиления роли театра среди молодежи, а также о преимуществах эстетического воспитания молодежи посредством театра со школьного возраста.

Ключевые слова: театр, эстетическое воспитание, театр кукол, воспитание, ценность, искусство, театрализация, театральная педагогика.

KIRISH

Bugungi rivojlanib borayotgan O'zbekistonda yoshlar ta'limi va tarbiyasi bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, yoshlar mamlakat kelajagi. Shu sababdan ularning ta'lim-tarbiyasi juda muhim hisoblanadi. Yoshlarga tarbiya



berishda qadriyatlar bilan birgalikda, san'at va madaniyatning, xususan, teatr san'atining ham o'rni bo'lak.

O'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalarini yanada chuqur singdirish, milliy mentalitetga yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashda san'at, xususan, teatr san'atining ahamiyati katta. Xalqimizda "bola boshidan" degan gap bor. Shunday ekan, o'quvchilarga bilim berish bilan birgalikda ularni estetik tarbiyalash, teatr san'ati orqali ularning ma'naviy olamini boyitib borish va mazkur san'at turiga qiziqtirish ishlari ham maktabgacha ta'lim yoki boshlang'ich ta'limda amalga oshirilmog'i lozim. Chunki san'at bilan hamnafas bo'lib, estetik tarbiya olgan yoshlar har jihatdan ilg'or va keng fikrlaydigan bo'lib voyaga yetadi. Afsuski teatr san'ati so'nggi bir necha yillar ichida o'zining oldingi ahamiyatini yo'qotgandek nazarimda. Negaki, ijtimoiy tarmoqlar rivojlanib borgani sari, hozirgi yoshlarning teatrga xuddiki almisoqdan qolgandek qarashi, unga bee'tibor bo'lishi va teatrni chetlab o'tishayotgani insonni xafa qiladi. Shu uchun ham hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar qatoriga aynan teatr san'atini rivojlantirish va uni yoshlar orasida yanada ommalashtirish masalasini ham qo'yish kerak fikrimcha. Chunki aynan mana shunday bebaho san'at asarlari orqali yoshlar ma'naviy ozuqa oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek xalqining teatr va musiqa san'ati ma'naviy madaniyatda muhim o'rinni egallaydi. Turli xalq bayramlari va sayillarida, to'y va ziyofatlarda doimo ommaviy xalq o'yinlari sahnalashtirilgan, askiyabozlik, qo'g'irchoq teatri, darboz, sozanda-go'yanda va masxarabozlik san'ati namoyish qilingan. O'zbek xalq teatri masxaraboz-qiziqchilar va qo'g'irchoq teatrlariga bo'lingan bo'lib, ularda askiyaboz, muallaqchi, darboz, nayrangboz (fokuschi), yog'ochoyoq, masxaraboz, qiziqchi, qo'g'irchoq o'ynatuvchilar, sozandalar ishtirok etishgan. Ular boy zodagonlarning xasisligi, nopokligi, ta'magirliги, munofiqligini ayovsiz fosh qilganlar. Milliy teatr taraqqiyot bosqichini o'rganar ekanmiz, xalqimiz ko'ngli zavq-shavqqa to'lgan, san'atni qadrlaydigan, yuksak didli ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Zero, «yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan



sug'orilgan asarlar yaratish - barcha san'at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo'lishi tabiiydir».

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini teatr san'ati orqali estetik tarbiyalashda, eng avvalo, sinf o'qituvchisining teatr san'ati haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lmog'i lozim. Ming afsuski aksariyat hollarda bu jarayonning teskarisiga duchor bo'lamiz. Bolalarni teatr san'ati orqali estetik tarbiyalashda xorij tajribasi tahlil etilganda, bu boradagi ishlarning mazmuni va maqsadi anchayin yuqori samara berishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya maktablarida maxsus teatr pedagogi lavozimi mavjudligi ijobiy holatdir. Teatrlashtirilgan tomoshalar (qo'g'irchoq teatrlar) dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan mavjud. Ular jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Teatrshunos Sh.Minovarov fikriga ko'ra, "Teatr san'ati har xil yoshdagi, xarakterdagi bolalarning fe'liga ta'sir etadigan, ularning qiziqishini o'stiradigan tarbiya maktabidir. Buning uchun bolalar teatri har xil spektaklni sahnalashtirishda ularning psixologiyasini bilishdan tashqari pedagogika, ruhshunoslik, bolalar adabiyoti va adabiyotshunosligidan ma'lumotga ega bo'lishi lozim". Darhaqiqat, teatr insonga xilma-xillik baxsh etadi, uni yumshatadi, g'azab bilan bexosdan ko'targan toshni yerga ohista qo'ydirib, o'ylashga, mushohada qilishga chorlaydi. Shuning uchun ham teatrni san'atning barcha turlari ichidagi eng ta'sirchan san'at turi deyilsa, xato bo'lmaydi. Buning ustiga bir sahna asari har gal qo'yilganida u aktyor iste'dodining tug'yoni natijasida yangi spektakl tarzida namoyon bo'ladi.

Tarixdan bizga ma'lumki, Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr-ibratxonadir" degan iborasi nechog'li o'rinli ekanligini bugun ham his qilishimiz mumkin. Negaki teatr-tarbiya maskani, bu muqaddas dargohda spektakllar tomosha qilib inson o'ziga ma'naviy ozuqa oladi, yaxshi bilan yomonning farqiga boradi, madaniy hordiq chiqaradi. Biz kelajak avlod tarbiyasini Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertak tomoshalrini ko'rsatish bilan, o'rta maktablarimizda yosh tamoshabinlarimizga mo'ljallangan spektakllarni ham



namoyish qilish bilan olib borishimiz zarur. Chunki muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek bugun tarbiyani Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlamog'imiz kerak. Albatta ta'lim tashkilotlari va o'rta umumiy o'rta ta'lim maktablarda teatr to'garaklari tashkil qilib ularni rivojlantirishimiz, kichik sahna asarlarini sahnalashtirib o'quvchilarga ko'rsatishimiz va bu to'garaklarga yordam berish, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'nalishlar ko'rsatish maqsadida teatr aktyorlarini jalb qilish, ustoz shogird an'alarini davom ettirish zarur.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, bolalarni teatr san'atiga oshno tarzda tarbiyalash, kelgusida ma'nan yetuk, milliy va asriy ularni an'analarga sodiq inson sifatida yetishtiradi. Bugungi kunda yoshlarimiz, o'quvchilar, oliy ta'lim muassasalari talabalarining teatr san'atiga bo'lgan e'tibori, qiziqishlarini oshirmog'imiz lozim. Ertamiz kelajagi bo'lgan yoshlarni teatr tomoshalari orqali ta'limiy-tarbiyaviy tushunchalarini, tasavvur olamini boyitishimiz mumkin bo'ladi. Imkon qadar teatr san'atining ahamiyati haqida yoshlar, ularning ota-onalariga ma'lumot, tushunchalar berib targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Chunki, farzandlarimiz teatr, sahna asarlarini jonli tomosho qilish orqali o'zlariga ma'naviy ozuqa olishadi. Teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan sahna asarlarining asosiy maqsadi ham kelajak yosh avlodni ma'naviy barkamol, yetuk insonlar qilib, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.



4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.